



TILSHUNOSLIKDA ZAMON MUNOSABATINING IFODALANISHI

Yodgorxonova Oishaxon Bekzod qizi

*Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti
xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo'nalishi talabasi*

Ilmiy rahbar: Azizaxon Rasulova

FarDU dotsenti, PhD

Annotatsiya. *Maqolada zamon, vaqt tushunchalari, ularning falsafa, tilshunoslikda ifodalanishi, morfologiya va sintaksisda zamonning berilishi, fe'l so'z turkumi va hol gap bo'lagi haqida fikr bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *zamon, vaqt, fe'lning zamon shakli, gap bo'laklari, hol, qo'shma gaplar.*

Аннотация. *В статье рассматриваются понятия времени, времени, их выражение в философии и лингвистике, морфологическое и синтаксическое представление времени, глагольная группа и придаточное предложение.*

Ключевые слова: *время, глагол, части речи, падеж, сложноподчиненные предложения.*

Abstract. *The article discusses the concepts of time, tense, their expression in philosophy and linguistics, the morphological and syntactic presentation of tense, the verb phrase and the case clause.*

Keywords: *tense, time, verb tense, parts of speech, case, compound sentences.*

Zamon va vaqt tushunchalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ular inson tafakkuri, tabiat va jamiyatdagi o'zgarishlarni anglashda muhim falsafiy kategoriyalar sifatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda zamon tushunchasi vaqt bilan uzviy aloqadadir, chunki zamonning o'zi vaqtning muayyan davrda, muayyan sharoitda namoyon bo'lish shaklidir.

Falsafiy nuqtayi nazardan, vaqtga nisbatan ikki xil yondashuv mavjud: dinamik va statistik qarashlar. Dinamik qarashga ko'ra, vaqtning faqat hozirgi lahzasi real mavjuddir. O'tgan zamon allaqachon o'tib ketgan, kelajak esa hali yuz bermagan, shuning uchun ular faqat inson xotirasi va tasavvurida mavjud bo'ladi. Bu yondashuvda vaqt doi mo oqimda, o'tkinchi va qaytarilmas jarayon sifatida ko'riladi. Statistik qarash esa buning aksini ta'kidlaydi: bu qarash vakillarining fikricha, vaqtning barcha lahzalari (o'tmish, hozirgi va kelajak) bir butun, yaxlit holda mavjuddir. Inson esa bu yaxlitlikni o'zining subyektiv hissiyoti orqali ketma-ket kechiradi, natijada unga vaqt oqib o'tayotgandek tuyuladi.

Bu ikki qarash o'rtasidagi tafovut vaqt va zamonning inson ongidagi ifodasini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Inson uchun zamon nafaqat fizik hodisa, balki ruhiy, ma'naviy va ijtimoiy hodisadir. Har bir zamon o'z davrining ruhini, qadriyatlarini, tafakkur tarzini va madaniyatini aks ettiradi. Shu sababli, zamon va vaqt tushunchalari bir-birini to'ldiradi: zamon – bu tarixiy va ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan vaqt, vaqt esa zamonning o'lchovidir.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Zamon keng ma’noga ega tushuncha bo‘lib, u nafaqat vaqtning o‘tishi, balki inson hayoti, jamiyat taraqqiyoti va tabiatdagi hodisalarning izchil kechishini ifodalaydi. Zamon tushunchasi tilshunoslikda keng o‘rganiladi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da zamon so‘zi quyidagi ma’nolarda qo‘llanishi aytib o‘tilgan: “1. Materiya (obyekt) holatlarining hamda hodisa (jarayon)larning izchil almashishi shakli, ya’ni dunyoda sodir bo‘layotgan barcha o‘zgarishlar va jarayonlarning davomiylik, takrorlanmaslik va qaytarilmaslik kabi umumiy xususiyatlarga ega bo‘lgan shakli.

2. So‘z borayotgan payt, ya’ni biror ish, voqea yoki hodisaning sodir bo‘layotgan, sodir bo‘lgan yoki sodir bo‘lishi kutilayotgan davri” [1].

Umuman olganda, zamon “vaqt, davr, payt” degan ma’nolarni anglatadi. U o‘tgan, hozirgi va kelajak vaqt oralig‘idagi hayotiy jarayonlarning barchasini o‘z ichiga oladi. Har bir zamonning o‘ziga xos belgisi bo‘ladi. Masalan, o‘tgan zamon so‘zlanayotgan vaqtdan avval bajarilgan jarayonni, hozirgi zamon bugungi kunning haqiqatlarini, kelasi zamon hali so‘zlanmagan harakat, voqea-hodisalarni ifodalaydi.

Tilshunoslikda zamon masalasi ko‘pincha morfologik va sintaktik sathlarda o‘rganiladi. Morfologik sathda zamon fe’lning zamon kategoriyasi orqali ifodalanadi: o‘tgan, hozirgi va kelasi zamon shakllari harakatning vaqt jihatidan munosabatini bildiradi [2]. Ammo zamon tushunchasi buning bilan cheklanib qolmaydi, u sintaktik sathda ham o‘z aksini topadi. Gapning tuzilishida zamon ma’nosi hol orqali ifodalanishi mumkin.

Hol gapning ikkinchi darajali bo‘laklaridan biri bo‘lib, qachon?, qanday?, qanday qilib?, qay tarzda? kabi so‘roqlarga javob beradi. Zamon tushunchasini aynan payt hollarida uchratish mumkin. Payt holi – harakat yoki holatning ro‘y berish vaqtini ifodalaydi. U qachon? so‘rog‘iga javob bo‘ladi va odatda ravish, ot yoki so‘z birikmalari orqali ifodalanadi. Masalan: Ertaga uchrashamiz gapida harakatning sodir bo‘lish vaqti kelajakda ifodalanyapti. Kecha yomg‘ir yog‘di harakatning o‘tgan zamondagi holatini ifodalamoqda. Har kuni Iroda darsga erta boradi gapida harakatning takrorlanish davri ko‘rsatilgan.

Quyoshni bahorning boshi va kuzning adog‘ida har qachongidan ko‘ra ko‘proq suyishimizni ta’kidlashga hojat bo‘lmas kerak. (Ahmad Lutfiy Qozonchi)

Berilgan gapda zamon ma’nosini ifodalayotgan gap bo‘laklari bahorning boshi, kuzning adog‘i birliklari bo‘lib, qachon? so‘rog‘iga javob bo‘lyapti va gapdagi payt munosabatini ochishga yordam beryapti.

Payt holi gapda zamonning grammatik emas, balki sintaktik ifodasini beradi. Agar fe’l shakli zamonni grammatik jihatdan ko‘rsatsa, payt holi harakatning aniq vaqt nuqtasi yoki davomiyligini belgilab beradi. Masalan, “Men boraman” gapida fe’l shakli hozirgi zamonni bildirsa, “Ertaga men boraman” gapida esa payt holi (“ertaga”) orqali kelajak zamon aniqlashtiriladi.

Biroq besh-olti yildan buyon Amudaryo yoqasiga yaqin ko‘llar bo‘yida guruch yetishtirayotgan koreys o‘rtoqlar bozorga serqatnov bo‘lib qolishgan. (Sh.Xolmirzayev)





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Mazkur gapdagi besh-olti yildan buyon birligi payt holi bo'lib, gapda payt munosabatini ifodalayapti. Hol son so'z turkumi bilan ifodalangan va qachondan beri? so'rog'ini oladi.

Demak, zamon tushunchasi turli grammatik vositalar orqali namoyon bo'ladi. Yuqorida aytilganidek, bunga misol sifatida hol, ergash gap va bog'langan qo'shma gaplardagi zamon munosabatlarini keltirish mumkin [3]. Zamon ma'nosi murakkab gap tuzilishlarida, ya'ni ergashgan va bog'langan qo'shma gaplarda yanada kengroq ifodalanadi.

Til tizimida ergashgan qo'shma gap — bu bitta fikrni ifodalovchi ikki (yoki undan ortiq) gapning ma'nosi jihatidan bir-biriga bog'lanishidan hosil bo'lgan murakkab sintaktik birlikdir. Ergashgan qo'shma gapda ergash gap bosh gapga ergashadi va uni izohlaydi, shart, sabab, payt, maqsad, natija yoki boshqa ma'nolarda to'ldiradi:

Darslar tugasa, biz ustozimizning topshiriqlarini bajarishni boshlaymiz gapida Darslar tugasa ergash gap bo'lib, harakatning sodir bo'lish vaqti yoki shartini ifodalamoqda. Biz ustozimizning topshiriqlarini bajarishni boshlaymiz gapi esa bosh gap hisoblanadi. Bosh gap ergash gapdagi shart-payt mazmunidan kelib chiqadigan natijani ko'rsatmoqda: Darslar tugagandan keyin biz ustozimizning topshiriqlarini bajarishni boshlaymiz.

Bunday tuzilishdagi gaplarda zamon munosabati fe'l shakllari va bog'lovchi vositalar orqali aniqlanadi. Ergash gapdagi fe'l odatda shart (-sa), payt (-ganda, -ganida, -gan paytda) yoki sababli bog'lovchilari bilan ifodalanadi [3]. Natijada bosh gapdagi harakat ergash gapda ko'rsatilgan vaqtga nisbatan sodir bo'ladi: Quyosh chiqqanda, qushlar sayray boshlaydi. Bu ergash gapdagi chiqqanda so'zi harakatning ro'y berish vaqtini belgilayotgan bo'lsa, Dars tugasa, hammamiz baravar uyga qaytamiz gapidagi tugasa so'zi orqali kelajakdagi vaqt bog'lanmoqda.

Shunday qilib, ergashgan qo'shma gaplarda zamon ikki harakat yoki holatning vaqt jihatidan bog'liqligini ifodalaydi. Biri shart, biri natija; biri sabab, biri oqibat tarzida zamon oralig'ida bog'lanadi.

Til tizimida teng munosabatdagi sodda gaplarning bog'lovchilar yordamida birikishidan hosil bo'lgan bog'langan qo'shma gaplarda har ikkala sodda gap ma'nosi jihatidan mustaqil bo'lsa-da, ular o'zaro zamon, sabab, shart yoki ketma-ketlik munosabatida bo'ladi.

Kecha qattiq shamol bo'ldi, ammo havo sovimadi. Bu misolda ikki sodda gap teng huquqli bo'lsa-da, ular o'rtasida zamoniyl ketma-ketlik va qarama-qarshilik mavjud.

Bog'lovchilar (va, ammo, lekin, keyin, shundan so'ng, so'ngra, nihoyat va boshqalar) yordamida gaplar orasidagi vaqt ketma-ketligi yoki zamon o'zgarishi ifodalanadi. Masalan: Avval yomg'ir yog'di, keyin osmonda quyosh chiqdi. Bu gapda zamon ketma-ketligi ochiq ko'rinib turibdi. Birinchi hodisa ikkinchisi bilan oldinma-ketin sodir bo'lgan.

Demak, bog'langan qo'shma gaplarda zamon — hodisalar ketma-ketligi, birining boshqasidan ilgari yoki keyin sodir bo'lishi orqali ifodalanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, til tizimida zamon ikki xil namoyon bo'ladi: morfologik (fe'l zamon shakllari orqali) va sintaktik (gapdagi hol, ayniqsa payt holi vositasida) jihatdan. Zamon vaqtning borliqda kechayotgan jarayonlar bilan bog'liq falsafiy ifodasi bo'lib, u o'tgan, hozirgi va kelajakni birlashtiruvchi, hayotning harakat va davomiyligini belgilovchi



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



tushuncha hisoblanadi. Zamon nafaqat falsafa, tarix yoki ijtimoiy hayotda, balki tilshunoslikda ham muhim o‘rin tutadi. Chunki til inson tafakkurining mahsuli bo‘lib, unda zamon, vaqt va davr tushunchalari grammatik vositalar orqali o‘z ifodasini topadi. Demak, zamon bu faqat hodisalar ketma-ketligini emas, balki inson tafakkurida va nutqida ularning qanday ifodalanishini ham bildiradi.

Tilning sintaktik sathida zamonning ifodalanishi — bu harakatlar orasidagi vaqt munosabatlarini anglatishdir. Payt holi, ergash gaplar va bog‘langan qo‘shma gaplar yordamida zamonning nafaqat grammatik, balki mazmuniy va mantiqiy bog‘liqligi ham ko‘rsatiladi. Shunday qilib, zamon nafaqat fe‘l shakllarida, balki butun gap tuzilishida, fikrlarning bog‘lanishida ham o‘z ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6-jild, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
2. Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent., 2010.
3. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. Тошкент., 2010.

